

BOLALARGA NISBATAN OILAVIY ZO‘RAVONLIKNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK MASALALARI

Sirojiddinova Sayyora Sadriddinovna

Samarqand viloyati Urgut tumani 14-maktab psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlikning psixologik jihatlarini, uning kelib chiqish sabablari hamda bolalar ruhiyatiga ko‘rsatadigan salbiy ta‘sirini yoritilgan. Shuningdek, oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, bolalarni himoya qilish va sog‘lom oilaviy muhitni shakllantirishning psixologik masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: oilaviy zo‘ravonlik, bola huquqlari, ruhiy salomatlik, psixologik himoya, oilaviy muhit, tarbiya, psixologik yordam, profilaktika, emotsional zo‘ravonlik, ijtimoiy moslashuv.

KIRISH

Bola shaxsining har tomonlama rivojlanishi, avvalo, oiladagi muhit va tarbiya bilan chambarchas bog‘liqdir. Oila farzand uchun birinchi tarbiya maskani bo‘lib, unda bolaning dunyoqarashi, qadriyatlari va shaxsiy fazilatlari shakllanadi. Shu sababli oilada sog‘lom psixologik muhitning mavjudligi bolaning ruhiy va jismoniy salomatligini ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Afsuski, ayrim oilalarda uchraydigan zo‘ravonlik holatlari bolalar rivojlanishiga jiddiy salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Oilaviy zo‘ravonlik deganda bolaga nisbatan jismoniy, ruhiy, emotsional yoki iqtisodiy bosim o‘tkazish, uning huquqlarini cheklash va qadr-qimmatini kamsitishga qaratilgan harakatlar tushuniladi. Zo‘ravonlik faqat jismoniy jazolash bilan cheklanib qolmaydi. Doimiy haqorat qilish, qo‘rqitish, e‘tiborsizlik, tahdid qilish yoki mehrdan mahrum etish ham zo‘ravonlikning ko‘rinishlari hisoblanadi.

Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning yuzaga kelishiga turli omillar sabab bo‘lishi mumkin. Ota-onalarning pedagogik va psixologik bilimlarining yetarli emasligi, oiladagi nizolar, iqtisodiy qiyinchiliklar, stress holatlari hamda nosog‘lom oilaviy munosabatlar shular jumlasidandir. Ba‘zi hollarda kattalar o‘zlari bolaligida duch kelgan noto‘g‘ri tarbiya usullarini takrorlaydilar.

Oilaviy zo‘ravonlik bolaning ruhiy salomatligiga chuqur salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bunday bolalarda qo‘rquv, xavotirlanish, o‘ziga ishonchsizlik, tushkunlik va tajovuzkorlik kabi holatlar kuzatilishi mumkin. Zo‘ravonlikka duch kelgan bolalar tengdoshlari bilan muloqot qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar, o‘qishga qiziqishlari pasayadi va ijtimoiy moslashuv jarayonida muammolar yuzaga keladi.

Bolalarga nisbatan oilaviy zo‘ravonlikning oldini olishda psixologik profilaktika

muhim o‘rin tutadi. Ota-onalarning tarbiyaviy madaniyatini oshirish, ularga bolalar psixologiyasi bo‘yicha bilimlar berish va ijobiy tarbiya usullarini o‘rgatish zo‘ravonlik xavfini kamaytiradi. Oilalarda o‘zaro hurmat, samimiy muloqot va mehr-muhabbat muhitini yaratish sog‘lom munosabatlarning asosini tashkil etadi.

Maktab va ta‘lim muassasalari ham bolalarni himoya qilishda muhim vazifani bajaradi. Pedagoglar va psixologlar bolalarning xulq-atvoridagi o‘zgarishlarni kuzatishlari, xavotirli belgilarni o‘z vaqtida aniqlashlari va zarur hollarda mutaxassislar bilan hamkorlik qilishlari lozim. Psixologik maslahat va korreksion ishlar bolalarning ruhiy tiklanishiga yordam beradi.

Bolalarda o‘zini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhim hisoblanadi. Ularni o‘z huquqlarini bilishga, muammolar haqida ishonchli kattalarga murojaat qilishga va yordam so‘rashdan cho‘chimaslikka o‘rgatish zarur. Bu zo‘ravonlik holatlarini erta aniqlash va oldini olishga yordam beradi.

Jamiyatda bolalarga nisbatan har qanday zo‘ravonlikka murosasiz munosabatni shakllantirish, oilalarni psixologik qo‘llab-quvvatlash va bolalar manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha tizimli ishlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Inson dunyoga kelib, kamol topishida oila va undagi tarbiyaviy muhitning o‘rni kattadir. Xondonda ota-ona farzandlar o‘rtasidagi munosabatlarning to‘g‘ri shakllanishi nafaqat oila tinchligi, balki jamiyat farovonligiga ham ta‘sir o‘tkazadi. Bugungi kunda hech qanday holat ota-onaning bolalarga nisbatan zo‘ravonliklarini oqlay olmaydi. Zo‘ravonlik nafaqat bolalarga jismoniy jihatdan sog‘lig‘iga, balki bolalarning hissiy farovonligi va kelajaklariga ham tahdid soladi. Bola erta yoshda, tana va miya rivojlanishining muhim bosqichida zo‘ravonlikni boshdan kechirgan yoki guvohi bo‘lgan bo‘lsa, salbiy oqibatlar qaytarilmas bo‘lishi mumkin. Zo‘ravonlik bolalarning jismoniy va ruhiy salomatligiga ta‘sir qiladi, ularning ta‘lim olish va ijtimoiylashuv qobiliyatini pasaytiradi, psixologik jihatdan sog‘lom voyaga yetishishlari va yaxshi ota-onalar bo‘lib shakllanishlariga to‘sqinlik qiladi.

Afsuski, oilada bolalarga nisbatan zo‘ravonlik, ijtimoiy norma hisoblanib qolmoqda. Ko‘pincha uning oqibatlari muhokama qilinmaydi. Farzandni tarbiyalash uchun zo‘ravonlik zarur, jismoniy kuch jazo sifatida ishlatilishi mumkin, deb hisoblaydigan ota-onalar bor. Qadimiy an‘anaöarimizga ko‘ra bolaga farishta deb qaralgan bola har doim begunoh hisoblangan, bugungi jamiyat, hayotdagi qiyinchiliklar va yoki imkoniyatlar bolalarni tez ulg‘aytirib qo‘ymoqda. Avval boshdan beg‘uborlik timsoli bo‘lgan shaxsni keyinchalik yomon inson qilib tarbiyalayotgan jamiyat, undagi illatlar bo‘lsa kerak aslida. Bola oppoq qog‘ozga o‘xshaydi, biz ularga nimani o‘rgatsak shuni qaytaradi. Demakki bolaga tarbiya berishdan avval biz o‘zimizni, jamiyatni isloh qilishimiz kerak.

Shuningdek, oilada bolalarni zo‘ravonlik qilniishning oldini olish tizimi oilaning

ichki resurslariga yo'naltirilgan yondashuv bo'lib, oila va bolalarning psixologik ijtimoiy farovonligini ta'minlashda oilaviy qadriyatlarni, mas'uliyatli otalonani, shuningdek, ijtimoiy faollikni shakllantirishga qaratilgandir. Samarali va keng qamrovli profilaktik, reabilitatsiya choralari majmuasi bolalar bilan oilada zo'ravonlikning oldini olish bo'yicha ishlarni rejalashtirishning asosiy elementi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonunida bola huquqlarini himoya qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida bolaning hayoti va sog'ligini muhofaza qilish, bolaning kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik, bolaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, bolalar huquqlari va imkoniyatlarining tengligini ta'minlash, bola huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish, bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash belgilangan. (4-modda).

Bolalar va yoshlarni himoyalashda muhtaram yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev "... iqtidorli, tarbiyali bolalar bilan ishlash oson, lekin hayotda qoqilgan yoki yomon muhitga tushib qolgan yoshlarni to'g'ri yo'lga, ezgu maqsadga da'vat qilish, ishontirish qiyin. Biz "uyushmagan yoshlar, uyushmagan yoshlar", deb ko'p gapiramiz. Lekin bu masalani huquqiy va amaliy jihatdan hal qilishga kelganda, ochiq aytish kerak, ko'pchiligimiz nima qilish lozimligini bilmaymiz" deb ta'kidlaganlarida quyida keltirilgan muammolar yechimida ham aynan, jamiyatga, oilalarda, maktablarda ta'lim va tarbiya olayotgan bolalarni hamda yoshlarni, kelajak avlodni barkamol inson qilib yetkazishga xizmat qiladigan profilaktik darajalarini kuchaytirish orqali har tomonlama innovatsion yondashuvlar asosida ko'maklashish zarurligi nazarda tutiladi. Buning uchun o'zgarishlar davrida bolalar va yoshlarni hayotga tayyorlashda hamda qo'llab - quvvatlashda, konsensus asosida yagona yondashuvni shakllantirish uchun maktab, oila va jamiyat hamkorligi asosida profilaktikani rivojlantirish, ushbu hamkorlikni ijtimoiy ish kasbiy faoliyati orqali amalga oshirish, o'quvchining ijobiy ijtimoiylashuviga erishishiga sabab bo'ladi. Bolalarni ijtimoiy himoyalashda jahon tajribasiga tayanib, o'zimizga milliy lashtirishimiz orqali yangicha yondashuvchilarni ishlab chiqishimiz va amaliyotga joriy etishimiz bolalarni, yoshlarni ijtimoiy himoyasini yanada kuchayishiga, ta'lim sifatini ortishiga, ularning hayotiy faoliyatidagi muammolarni kamayishi orqali farovonligini ta'minlanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, T.Narbayeva bolalar va yoshlar bilan yuzaga kelayotgan muammolar haqida to'xtalib "... asosan yoshlar tomonidan sodir etilayotgan salbiy holatlarning oqibati bilan ishlab qolinayotganligi, yoshlar bilan ishlash, ularni hayotga tayyorlash bo'yicha tizimli ishlar yetarli darajada tashkil qilinmaganligi yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan biridir deb ta'kidlaganlarida ham, aynan tizimli ishlar nuqtai nazaridan profilaktik ishlarini kuchaytirish orqali oilalarda bolalarga nisbatan keltirilayotgan ziyonni, zo'ravonlikni oldini olish, muammolarni yechish masalalari nazarda tutilgan bo'lsa, bejiz emas.

Deviant xulq atvorli bolalar atrofdan olgan yomon energiyalarini boshqalarda chiqarib yuborishga intiladilar, jamoadagi kuchsiz shaxslarni irodasini sindirmoqchi ularni kamsitib rohatlanmoqchi bo'ladilar, buning natijasida bezoriga aylanib qoladilar. Bundan bolalarning ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'ladi, bunday bo'shliqlarni o'z maqsadi yo'lida to'ldirmoqchi bo'ladilar shuning natijasida terrorchi, giyohvand bo'lib qolishlari mumkin O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A.Karimov "... siyosatda ham, ijtimoiy hayotda ham, fanda ham vakuum - bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ya'ni, agar o'z g'oyang bo'lmasa, sening yurtingda chet g'oya kelib hukmronlik qiladi. Bunday g'oyaviy bo'shliqlarni esa avvalo oilaviy muhitdan olib tashlash lozim. Oiladagi moddiy yetishmovchilik sababli yoki ehtiyojlarning ortishi, hayotga yengil qarash natijasida jamiyatda o'g'rilar, huquqbuzarlar oqimi rivojlanib bormoqda.

Ota-onalarning ishlash yoki ma'lum bir sabablar tufayli boshqa davlatga ketishlari bolalaridan uzoqda bo'lganliklari sababli bolalar mehrga muhtoj, keraksizlik hissi bilan ulg'aymoqdalar, shuning uchun jamiyatda fohishalar oqimi ko'paymoqda. Ushbu illatlarni bartaraf etish uchun avvalo ommaviy axborot vositalarini isloh qilish lozim. Telekanallarda efirga uzatilayotgan multfilmlar, kinofilmlar bolalarning yosh darajasiga mos kelishini ko'rgan holda uzatish lozim. Maktablarning boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ijtimoiy ish xodimining, psixologning hamkorligini mustahkamlash kerak. Bundan tashqari ota-onalar bolalarga bir kunda nech soat vaqt ajratmoqda shunga e'tiborli bo'lishlari lozim. Muqaddas dinimiz Islomda "Ota-ona bolasiga chiroyli tarbiyadan, odobdan ko'ra yaxshiroq narsa bera olmaydi" deyilganda otaonaning bolaga avvalo odob axloqni o'rgatishlari, bu bola hayotida muhim ekanligi nazarda tutilgan. Bugungi kunda iqtisodiy hayotni yo'lga qo'yish uchun otaonalar bolalariga vaqt ajratmay qo'yganlar. Bunday sharoitda ulg'aygan bolalar kelajakda otaonalik vazifasini yetarlicha tushunib yetmaydilar.

Darhaqiqat, bugungi kunda eng keng tarqalgan zo'ravonlik turlari jismoniy zo'ravonlik va beparvolikdir. Muassasalar jarohat olgan bolaga nisbatan kompleks choratadbirlarni ko'rishlariga qaramay, ota-onalarga nisbatan jazoni kuchaytirish uchun maxsus huquqiy vositalarni shakllantirishlari zarur, shuningdek, bolalarni zo'ravonlik qilish faktlarini oldini olish bo'yicha eng samarali choralar qayd etilgan oilada ma'muriy choralar va jazo choralari qo'llaniladi. Shuningdek, mutaxassislarning faoliyat samaradorligini pasaytiradigan asosiy omillar - bu zaruriy hujjatlarning xajmining ko'pligi va ota-onalarning masalaning jiddiyligi to'g'risida tushunchasini yetishmasligi. Shuning uchun mutaxassislarning fikriga ko'ra, profilaktikaning birlamchi darajasiga e'tibor qaratish lozim, chunki har qanday salbiy ijtimoiy hodisalarni oldini olish, oqibatlarni bartaraf etishga nisbatan osonroqdir. Birlamchi bosqichda olib borilgan yuqori sifatli ishlar keyingi bosqichlarda og'ish namoyonlarining kamayishini kafolatlashi mumkin. Mutaxassislarning hech biri biron

bir profilaktika darajasini istisno qilmadi, bu eng samarali ishni ta'minlash uchun, xolatning yengil-og'irligidan kelib chiqib, profilaktikaning uch darajasida ishlash majburiy ekanligini ko'rsatmoqda.

XULOSA

Bolalarga nisbatan oilaviy zo'ravonlik ularning ruhiy, emotsional va ijtimoiy rivojlanishiga jiddiy zarar yetkazadi. Ushbu muammoning oldini olish uchun otalarning psixologik va pedagogik savodxonligini oshirish, oilalarda sog'lom psixologik muhit yaratish hamda ta'lim muassasalari va mutaxassislarning hamkorligini kuchaytirish zarur. Zo'ravonliksiz muhitda tarbiyalangan bola sog'lom, baxtli va barkamol shaxs sifatida kamol topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019.
2. Shoumarov G'.B. Oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
3. Nishonova Z.T. Bolalar va o'smirlar psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
5. G'oziyev E.G'. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
6. O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni.